

Abduqodirova Gulnora Shuhrat qizi**Mardonova Gulsanam Damin qizi***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qadimgi Rim davridagi tarixiy manbashunoslik masalalari yoritilgan. Unda qadimgi rimlik mualliflarning asarlari, arxeologik topilmalar, epigrafik va numizmatik manbalar asosida Rim imperiyasining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini o'rganish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, antik davr tarixini o'rganishda manbashunoslikning metodologik asoslari va zamonaviy ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Maqola tarixshunoslar, arxeologlar va qadimgi davr bilan qiziquvchi tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Dionisiy, Lutsiy, Tatsit, Osiyo, Afrika, Konsant, Falsafa.*

Abstract: *This article highlights the issues of historical source studies during the Ancient Roman period. It analyzes the ways of studying the political, social, and cultural life of the Roman Empire based on the works of ancient Roman authors, archaeological findings, epigraphic and numismatic sources. The methodological foundations of source studies and modern scientific approaches to studying ancient history are also examined. The article may be useful for historians, archaeologists, and researchers interested in antiquity.*

Keywords: *Dionysius, Lucius, Tacitus, Asia, Africa, Consant, Philosophy.*

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы источниковедения периода Древнего Рима. Анализируются пути изучения политической, социальной и культурной жизни Римской империи на основе трудов древнеримских авторов, археологических находок, эпиграфических и нумизматических источников. Также рассматриваются методологические основы источниковедения и современные научные подходы к изучению античной истории. Статья может быть полезна историкам, археологам и исследователям, интересующимся древностью.*

Ключевые слова: *Дионисий, Луций, Тацит, Азия, Африка, Консант, Философия.*

KIRISH: Qadimgi Rim tarixini an'anaviy xronologik chegarasi Rim shahrini barpo qilinishi 754—753-yillardan boshlanib, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi 476-yil bilan tugallanadi. Rim tarixini o'rganishda turli xil manbalar: Rim va Yunon tarixchilarining asarlari, tabiiy, ilmiy va badiiy adabiyot, huquqiy yodgorliklar, arxeologiya, epigrafika, numizmatika va papirologiya ma'lumotlaridan foydalaniladi. Qadimgi Rim tarixi bo'yicha moddiy manbalar xilma-xil bo'lib, Italiyaning paleolit va neolit davridan dalolat beradigan tosh qurollar, sopol idishlar, qoyatosh tasvirlari mavjud. Shimoliy va Q'rta Italiyada jstrusk madaniyatiga tegishli bo'lgan sog'onalar, uy-joy ibodatxona qoldiqlari topilgan. Rim shahrining o'zida oalatin. eskvlin va boshqa tepaliklarda hamda forumda ko'p sonli qarorlari

bodatxona poydevorlari, ona bo'riining jez haykali, davridagi shahar devori qoldiqlari qazib ochilgan. Italiyaning boshqa shaharlarida ko'p sonli arxeologik yodgorliklar mavjud. Jumladan, eramizning 79-yilida vulqon otilishi natijasida kul ostiga qolib ketgan Pompeva va Gerkulanum shaharlari arxeologlar tomonidan to'la qazib ochilgan. Bu shaharlardagi ko'chalar, uylar, ibodatxonalar to'laligicha saqlanib qolgan va eramizdan avalgi birinchi ming yillikdan eramizning II asrigacha mavjud boigan shahar me'morchiligi to'g'risida boy ma'lumotlar beradi.

Asosiy qism: Er av I asr so'ngida Rimda yashagan yunon galikarnaslik Dionisiyning «Rim qadimiyatlari» nomli 20 kitobida Rimning ilk etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixi batafsil tasvirlanadi. Bu kitoblardan 9 tasi to'la saqlanib qolgan bo'lib, er av 442-yilgacha bo'lgan voqealar bayon qilinadi.

Rim tarixshunosligining eng yirik vakili Tatsit (eramizning I asrining 2-yarmi, I asrning boshlari) asarlarida eramizning I asridagi voqealar va Rim tarixiga oid german qabilalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni borishini tiklash uchun Askoniy Pidian (eramizning I asri), Lutsiy Anney Flor va Evtropiy kabi imperiya davri yozuvchilarining yirik asarlari, har xil kompendiyalar, yozuvchilarning yirik asarlari mavjud bo'lgan. Rim tarixini qayta tiklashda ilmiy jihatdan qimmatli bo'lgan 100 ga yaqin tadqiqotlarni e'lon qildilar. Rimning etrusklar davri, respublika imperiya davrlari, diniy hayoti bo'yicha qimmatli ma'lumotlar qadimgi kohinlar kollegiya jadvallari, qabrtosh yozuvlari, nasroniy dini kitoblari, nasroniy tarixchilarning asarlari orqali bilib olish mumkin.

Rim davlatiga oid davlat aktlari, senat qarorlari va sud hujjatlari Rim kalendari kabi tarixiy hujjatlar mavjud. Rim mifologiyasi, falsafa, adabiyot, komediya kabi yozma yodgorliklari bizgacha juda katta miqyosda yetib kelgan.

Shu bilan birga Rim imperiyasi qaramog'ida bo'lgan Italiyadan tashqari Yevropaning boshqa hududlarida, Osiyo, Afrikada ko'p miqdorda me'moriy inshootlar: saroy-ibodatxona, mudofaa inshootlari qoldiqlari, ko'priklar, portlar saqlanib qolgan. Imperiyaning ravnaqi va inqirozi davrida Rim madaniyati Yunon madaniyati bilan parallel, lekin mustaqil rivojlandi. IV asrda xristian tarixshunosligi shakllanishi boshlandi. Xristian cherkovi tarixi bo'yicha paydo bo'ldi.

Ularning orasida kesariyalik Yevseyiyning taniqli tarixchi va ilohiyotshunoslik, buyuk Konsantining biografiyasi muallifining cherkovi tarixi asari alohida o'rin tutadi.

Xulosa: Qadimgi Yunoniston manbashunosligi tarixiy voqealarni chuqur anglashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan manbalar — tarixiy yozuvlar, arxeologik topilmalar va adabiy asarlar — Yunoniston sivilizatsiyasining turli jihatlarini yoritishda muhim rol o'ynaydi.

Ularning ilmiy tahlili va to'g'ri talqini tarixchilarga haqqoniy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Shunday ekan, kelgusida manbashunoslik yondashuvlarini yanada takomillashtirish va zamonaviy metodlarni qo'llash zarurati mavjud. Bu esa qadimgi davr tarixini yanada chuqurroq va aniqroq o'rganish imkonini beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rajabov r. R. Qadimgi dunyo tarixi Fan va texnologiya, 2009 yil
- 2.Boynazarov F.A Qadimgi dunyo tarixi T:2004
- 3.Avdeyev.V.I.Qadimgi sharq tarixiga kirish, Toshkent-1964, 844 bet
4. Pikus N N. Krushkol Yu.S Qadimgi dunyo tarixi II tom T-1975